
QARORGA KO'RA ICHKI YO'LLAR ASFALT QILINMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan Toshloq tumanidagi Toshloq mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan Lolazor, Intizor, Ro'zimatov hamda Ittifoq ko'chalari asfaltlashtirilmoqda.

Qarorga ko'ra, ichki ko'chalarning 3 km masofasi asfalt qilinadi. Qurilish-ta'mirlash ishlari uchun Davlat byujetidan 1 milliard 500 million so'm mablag' ajratilgan. Xozirgi kunda yo'lsozlar tomonidan sifatli asfaltlash ishlari bajarilmoqda. O'z o'rnida mahalla faollari tomonidan qurilish jarayonlari bo'yicha jamoatchilik nazorati ham o'rnatilgan.

2023-03-17 16:10:08